

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-12/5
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., dos.
Jumaniyozov Otoboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otoboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№12/5 (133), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 276 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

Naimova A.M., Amonova M.J. Intertekstuallik nazariyasi: Kristevadan zamonaviy adabiyotgacha	6
Najmiyeva P.T. Yapon va o'zbek tillaridagi kelishik kategoriyalarining morfologik qiyosi	8
Nashirova Sh.B. Tarjima va semantizatsiya madaniy kontekstda yondashuvlar va amaliy usullar	11
Nasrullaeva T.S. Theodore Dreiser and the Shaping of Twentieth-Century American Narrative Tradition	14
Normatova F.A. Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tizimida mifologik tasavvurlarning aks etishi va ularning madaniy merosdagi o'rni	17
Normuradova N. Lotin tili grammatikasida so'z turkumlarini o'rganishning nazariy asoslari	20
Norqulova M.G. Yangi o'zbek qissalarining janr xususiyatlari	23
Nurmetov Sh. Analysis of Historical Terms Used in Linguistics	26
Ochilova S. O'zbek tili lug'atlarida xulq-atvor fe'llarining semantik-pragmatik o'rni	30
Oripova K.E. Korpuslar va statistik til modellarining lingvistik asoslari	33
Ortiqov E.M. She'riy matnning diskursiv makoni: kognitiv, kommunikativ va lingvomadaniy tahlil	36
Ostonov O'.Ya. Qishloq turizmi terminlarning morfologik tuzilishi	39
Otaboyeva D.L. Linguocultural Archetypes: A Structuralist and Semantic Analysis of Totemism in Indigenous and Turkic Traditions	42
Qosimova F.X. O'zbek–ingliz tibbiy terminlarining assertiv nutq aktlaridagi vazifalari	45
Quljanova T.Sh. Asqar Mahkam she'riyatida so'z talqini	48
Quliyeva F.Q. Luqmon Bo'rixonning so'z qo'llash mahorati	51
Rabbimqulova G.E. "Mahbub ul qulub" asarining o'rganilish tarixi	53
Rahimova Sh.J. Socio-cultural determinants of the gratitude speech act in english and uzbek	55
Rahmonov H.A. Til va xotira: kognitiv tilshunoslikda semantik va episodik ma'lumotlar	58
Rashidova M.R., Madiyeva M.Yu. Uzbek folk proverbs: artistic-esthetic and didactic features	61
Rasulova G.N. "Devonu lug'otit turk" va "Boburnoma"da dorivor o'simlik nomlarining qo'llanilishi	64
Raximova M.S. O'zbek va nemis tillari paremiologiyasida hayvon va o'simlik nomlarining ishlatilishi: qiyosiy tahlili	68
Raximova F.Sh. Uzbek language in professional activities	70
Raxmatilloeva F.N. Shirinlik nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvomadaniy tahlili	74
Raxmatova R.M. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol ruhiyati: "yovuzlik" va "ezgulik" o'rtasidagi kurash	77
Raxmatova D.N. Tilning tillo jilosi	80
Raxmatullayeva N.E. Me'morchilik obyektlari nomlarining lingvistik xususiyatlari va milliy-madaniy konsept sifatidagi talqini	83
Rakhmatullaeva Sh. Linguocultural features of nature imagery in english literary discourse	86
Raxmonova M.J. Nutq ontogenezida ichki nutqning roli	88
Rayxonova M.M. She'riyatida inson va uning badiiy olami	91
Sabirov A.A. Lyumpen-proletariat terminining etimologik va semantik tahlili	94
Saidmuradova S.J., Iskandarova J.B., Xolmo'minova M.Sh. Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy tasvir vositalarining pragmatolingvistik tahlili	97
Saidova Z.X., Nusratilloeva M.A. Hikmatli so'zlar tushunchasi va ularning tilshunoslikdagi o'rni	100

Saidova Z.X., Qiyomova Sh.Sh. Analysis of phraseological units expressing negative psychological states in english and uzbek	103
Saidova Z.Kh., Ruzmatova G.G. Understanding stability through metaphorical models: pressure, burden, heart, darkness, and balance	106
Salimova D.F. Bolalarda fonologiyaning o'zlashtirilishi bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar tahlili	108
Salohiddinova M.B. Ergonomika tushunchasi va uning lingvistik talqini	111
Salomova G.A. Ingliz-o'zbek ilmiy matnlarida termin va qisqartmalar tarjima masalalari	113
Samiyeva I.M. Badiiy asarlarda obraz tadqiqining nazariy aspektlari	116
Sattorova M. Xalq kitoblarining ayrim janr xususiyatlari sharhi	118
Saydaliyeva M.Sh. Film diskursini tahlil qilishda tilshunoslik metodlari	121
Saydjanovna K.D. Ingliz va o'zbek tillaridagi antonimlarning diskursda qo'llanishi	123
Saydullayeva B.S. The cultural role of anthroponyms in naming system	127
Saydullayeva D.I. "Majolis un-nafois" da ikki tilli ijod talqini: zullisonaynlikdan translingval poetikaga	129
Sharipova S.S. Pragmatic characteristics of uzbek and english idioms	132
Sharopova Ch.Sh. Badiiy diskurda yumor va satiraning sotsiokulturologik aspektlari	134
Shodmonova S.Sh. "Majolis un-nafois"da keltirilgan Jaloliddin Rumiy obrazi: adabiy-tarixiy tahlil	137
Shukurova M.A., Hikmatulloyeva A.Sh. Ingliz va o'zbek xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlari	140
Shukurova M.A., Mustafoyeva U.K. Ingliz va o'zbek tillarida emotivlikni ifodalovchi leksik va stilistik vositalar	143
Sodiqova S.I. Shaxs ikkilamchi nominatsiyasining siyosiy diskursda qo'llanilishi	146
Suvanova X.B. Cognitive linguistics: theoretical foundations and applications	148
Tairova M.A. Mamlakatshunoslik terminlarining sohaviy ko'lamlari	151
Talibjanova A.L. Yoshlar nutqida slengning lingvomadaniy xususiyatlari va uning ommaviy kommunikatsiyadagi funksional roli	154
Taxirova M. O'zbek tili korpusi birliklarini semantik teglash masalalari	156
To'rayeva L.O. Erkin Vohidov ijodida mavzu va badiiy ifoda tasviri	159
Tolibayev D. Politeness and Kinship: Linguocultural Functions of Address Terms in Korean and Karakalpak	162
Toshboyeva D.A. Kuzminova I.A. va Laktionova N.M. larning rus qalpoq leksikasi haqidagi nazariy qarashlari	166
Tosheva N.Sh. Zamonaviy o'zbek nasrida mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi	169
Turdiqulova K. Muhammad Ismoil she'riyatida qofiyaning ifodalovchilari	172
Tursinbayeva Sh.A. Badiiy matnda detalning lingvomadaniy ahamiyati	176
Tursunov M.M., Fakhriyeva D.O. Phraseological units containing lexemes related to the semantic field "fruits and vegetables" in english and uzbek languages	179
Umarova S.S. Metaphorical representation of emotions in english and uzbek: a linguocultural perspective	182
Usmonova M.U. O'zbek tili korpus lingvistikasining shakllanishi va taraqqiyoti	185
Valiyeva N.D. "Magic/Sehr-Jodu" konseptini ifodalovchi leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	188
Xayrullayeva M.A. O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" qissasidagi metaforik birliklarning leksik-semantik tahlili	190
Xo'jamova L. Charlz Dikens romanlaridagi frazeologizmlarning tipologiyasi va ularni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar	193
Xodjayeva G.B. Texnika va ilm-fan sohasidagi o'zlashmalar	195
Xodjayeva Sh.R. Shekspir asarlaridagi erkalash birliklari tarjimasining pragmatik xususiyatlari	198

1	Hayvon nomlari	O'simlik nomlari
2	Akula	Agava
3	Albatros	Ajdargul(itog'iz)
4	Altibiya	Ajriq
5	Anakonda	Ajriqbosh(oqso'xta, otqunoq)
6	Arston	Akatsiya
7	Asalari	Alaf
8	Ayiq	Amfibiya
9	Ayg'ir	Anjir
10	Ang	Anor
11	Bakra	Anchar
12	Bakrabaliq	Arpa
13	Baliq	Arg'ovon
14	Baliqqiyg'ir	Archa
15	Baliqchi-ukki	Atirgul

[12]

1-rasm. So'zlarni ma'lum bir kategoriyalarga asosan guruhlash.

Bundan tashqari birliklarni shaxs otlari, kasb-kor nomlari, o'rin-joy otlari kabi ot turkumiga mansub guruhlarini hosil qilish mumkin. Shu tarzda barcha so'z turkumlari o'zbek tili korpusi birliklari izohlari bilan "O'zbek tilining izohli lug'ati" asosida guruhlanadi va uning axborot tizimi NLPga havola etiladi.

Xulosa. Umuman olganda, semantik teglash O'zbek tili korpusi va uning elektron resurslarini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib, kelajakda NLP tizimlari, avtomatik tarjima va sun'iy intellekt texnologiyalarida tilni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu esa semantik teglashga doir istiqbolli tadqiqot ishlarini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>.
2. Пиперский, Р. Корпусная лингвистика: основные понятия. – Москва: Флинта, 2014.
3. McEnery T., McCarthy T. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge University Press, 2012.
4. Rahimov A. «Kompyuter lingvistikasi asoslari». «Akademnashr» nashriyoti, 2011-yil.
5. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2020.
6. Akhmedova D., Mengliev B.(2019). Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE), 8(3S),October 2019.
7. Elov B. va boshq. NLPda semantik teglash masalalari. – O'zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi seriyasi, 2024.
8. Abjalova M. Korpus birliklarini teglash va annotatsiyalash masalalari // Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari. Ilmiy-amaliy konferensiyasi. // https://www.researchgate.net/publication/375912394_Korpus_birliklarini_teglash_va_annotatsiyalash/.
9. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011.
10. Johannes Fährndrich, Sebastian Ahrndt and Sahin Albayrak. Self-Explanation through Semantic Annotation: A Survey. –Berlin, 2024.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2023.

UO'K 821.151.2(575)-8

ERKIN VOHIDOV IJODIDA MAVZU VA BADIY IFODA TASVIRI

L.O.To'rayeva, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs va ijod konsepsiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayotning badiiy ijodga ta'siri, she'riyatning individual hodisa ekanligi Erkin Vohidov ijodi misolida tekshirilgan va muayyan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: janr, g'azal, obraz, she'riyat, so'z, rang, ohang, badiiy umumlashma, taxayyul, tafakkur.

Аннотация. В статье рассматриваются понятия личности и творчества, влияние общественно-политической жизни на художественное творчество, индивидуальный феномен поэзии на примере творчества Эркина Вохидова, а также излагаются некоторые соображения.

Ключевые слова: жанр, газель, образ, поэзия, слово, цвет, тон, художественное обобщение, воображение, мысль.

Abstract. *This article examines the concepts of personality and creativity, the influence of socio-political life on artistic creativity, and the individual phenomenon of poetry, using the work of Erkin Vohidov as an example. It also presents some considerations.*

Key words: *genre, ghazal, image, poetry, word, color, tone, artistic generalization, imagination, thought.*

Adabiyot olamida mo'jiza deb e'tirof etilgan har qanday barkamol asarni botiniy nurlantirib turadigan tilsimli bir qudrat bo'ladi. Bu shaxs va ijod yaxlitligi, bir butunligi samarasidir.

She'riyat hayotning aksi bo'lsa, hayotning ma'nosi sifatida faxri koinot sanalmish hazrati Inson qaraladi. Taxayyul va tafakkur uyg'unligidan tug'ilgan she'rlargina yashashga haqli. Yozish uchungina qog'ozga tushgan she'rlar adabiyot ostonasidan hatlab o'ta olmaydi. Inson yo'li uzun emas. Har bir inson yo'lining so'ngida bir uyum tuproq bilan belgi qo'yishadi. Ammo hech kim o'sha bir uyum tuproqni o'z qo'llari bilan uya olmaydi. Buni boshqalar o'zlarining behad parishonxotirliklaridan saqlanish uchun ado etadilar. Inson o'z yo'li so'ngida qo'yilgan bu belgidan boshqa hamma to'siqlardan o'ta oladi.

She'riyatdagi har so'z, rang, ohang, jilo, fikr va falsafa xuddi linzadek bir nuqtaga yo'naltirilgan. Istalgan she'r xoh u tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo'lsin uning bosh qahramoni shubhasiz, Inson. Benazir va betakror Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida she'riyat olamiga shunday baho beradi.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.
Tutaykim qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Ya'nikim, she'riyat maydoni shunday bir maydonki, bamisoli sher jangiga kirishgandek, katta kuch – iqtidor, tafakkur bilan qadam tashlamoq va mehnat qilmoq lozim. Bu jangda faqat g'oliblargina omon qoladi – abadiyatga doxil bo'ladi.

Erkin Vohidov jahon adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, I.V.Gyotening "Faust" tragediyasi va S.Yeseninning "Fors taronalari" she'riy to'plamini mahorat bilan ona tilimizga o'g'irgan. "Oltin devor", "Istambul fojiasi" kabi sahna asarlari ham uzoq yillar davomida milliy teatr sahnasidan tushmay kelmoqda.

Shoirning "O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar" g'azali a-a, b-b, v-v tarzida qo'fiyalangan. G'azali zebqofiyaning yangicha ko'rinishida yozilgan bu she'r masnaviyga ham o'xshab ketishi bilan e'tiborga molik.

Mana bu kun bog'larimga qaytib keldi bulbullar,
Hur vatanga hur qo'shiqlar aytib keldi bulbullar.

Shoir "tomigacha paxta ekkan elda", "osmonidan zahar yoqqan yurtida" bulbullar yasholmasligini alam bilan ta'kidlaydi. Istiqloq sharofati bilan erkin va ozod aylangan yurtga bulbullar qaytib kelganidan quvonadi. "Sir aytar g'unchaga g'uncha", "Hijron qushlari", "Ikki jahonni sadqa qil" kabi she'r va g'azallarda poetik fikrning badiiy ifodasi rang-barang. Til, uslub, badiiy tasviriy ifoda vositalari bir-birini to'ldiribgina qolmay, ular shoir ijodining ideali darajasiga ko'tarilgan, deb aytish mumkin. "Bedorlik" she'ri, "Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlari, "Istambul fojiasi" dramatik dostonida shoir ijod konsepsiyasining yana bir qirrasini bo'rtib ko'rinadi. Ikkinchi jahon urushida shahid bo'lgan yigirma million kishining taqdiridan ruhan ezilgan shoir o'z kechinmalarini turli janrdagi asarlarida maromiga yetkazib ifodalangan.

"Nido" ijodkorning voqealarning shoirona tasvirini chizish, mazmunga xos ritm, ohang topish, obrazlar taqdiri, xarakterini poetik dialoglarda gavdalantira olish, ijobiy qahramon qiyofasini takomilda, harakatda ko'rsata olish mahorati qiyomga yetganligidan darak beradi. Doston shunday bir shoirona harorat bilan yozilganki, uning har bir misrasidan chindan ham urush jafolaridan zada

bo'lgan qalblarning mungli sadosi – nidosi eshitilib turadi. Albatta, bu oddiy nido emas, shahid ketgan millionlab otalarning nidosi. Doston markazida uch obrazning taqdir dialektikasi yotadi. Bular:

1. Vatan uchun jang qilayotgan ota;
2. Otaning g'alaba qozonib qaytishini kutayotgan norasida bola;
3. Tuyg'ulari tiniq va toza go'dakning mehribon onasi.

Ko'rinadiki, E.Vohidov ijtimoiy-siyosiy tuzum qanchalar shafqatsiz bo'lgan davrda ham qalb hayqirig'ini ayta olgan ijodkor. Haqiqiy iste'dod har qanday tazyiq, mustabid mafkura hukmron bo'lgan paytda ham o'z so'zini ramzlar vositasida ayta oladi.

Erkin Vohidov milliy tilimizdagi so'zlarning ma'no tovlanishlarini, jilosini, sehr-sinoatini teran anglaydi. “Uch so'zda bir ma'no” she'rida ana shu fikr tasdig'i kuzatiladi.

Seni ko'rmishdi Aynu Chashmu Ko'z

Tush, Xob, Manominda

Labing, La'ling, Dudog'ing

Bu na daryo deb savol bermish, -

Satrlari bilan boshlangan she'rda Ayn, Chashm, Ko'z; Tush, Xob, Manomin; Lab, La'l, Dudog'; Qo'l, Dast, Yad; Lison, Til, Zabon; Asal, Bol, Shahd so'zlari bilan bog'liq ruhiy holat tasvirlangan. Turkiy, forsiy, arabiy tillarga xos leksemalarni qo'llash bilan bog'liq o'ziga xos so'z o'yini vujudga kelgan. Shoirning o'zi buni she'r oxirida quyidagicha izohlaydi:

Senga Erkin g'azal bitmishki,

Shart uch so'zda bir ma'no.

Dariy, turkiy, arabiyda

Suxan, so'zu, maqol bermish.

She'r – insoniy his-tuyg'ularning in'ikosi yoxud tasdig'i bo'lsa-da, nozik dil tebranishlarini, qalb kechinmalarini so'zga to'la-to'kis ko'chirish ushalmaydigan orzudir. Shoir esa bunga hech qachon rozi bo'lmaydi, u orzu shamiga o'zini xuddi parvonadek qayta-qayta uraveradi. Shoir go'zallikdan qancha hayratlansa, zulm-istibdoddan, yolg'on va xiyonatdan, munofiqlik va ikkiyuzlamachilikdan shuncha nafratlanadi. Zero, chin shoirlik – murosaga ko'nmaydi, u tabiatan isyonkor.

Muallifning e'tirofi va iqroriga ko'ra shoirning qalbi anor donachalaridek qip-qizil, tiniq, sof, biroq u qonni eslatadi. Chunki shoir o'zgalar dardi, xalq taqdiriga befarq emas, u boshqalarning iztirobini o'z iztirobidek qabul qiladi-yu, mazkur qisqagina anor obraz darajasiga ko'tarilgan, bu obraz muallifning topilmasi. Badiiy ijodning induvidual hodisa ekanligini belgilovchi mezonlardan biri. Shoirning boshqalar ilg'amagan voqea-hodisa, narsa-buyumlarni qalb prizmasidan o'tkazish va ularga yangicha yondashuvidir.

Urush 60-yillar avlodi shoirlarida yetakchi mavzulardan biri. Jumladan, A.Oripovning “Ayol”, “So'nggi urush”, “Qonli ko'ylak” kabi she'rlarida urushni la'natlash, tinchlikka da'vat ruhida, Zulfiyaning “O'g'lim, sira bo'lmaydi urush” she'rida ham bosh g'oya tinchlikdir. G'afur G'ulom boshlab bergan an'ananing davomi bo'lgan bu she'rlarning barchasini yagona g'oya birlashtirib turadi. “Sog'inish”, “Gitler oqpadar” she'rlarida urushga qarshi nafrat va tinchlikni ulug'lash g'oyalari ulug'lovchi asarlar sifatida adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan.

Erkin Vohidovning “Istambul fojiasi” she'riy dramasi “Nido” dostoniga yaqin turadi, biroq shoir o'zini o'zi takrorlamaydi. Dramaning qahramonlari Iskandar, Saodat, Jalol – “urushning eng baxtsiz qurboni tirik qurbondir” [3]. Jalol ukasi Iskandar sevgan qizi Saodatga bila turib uylanadi. Bunga chidayolmagan Iskandar ko'ngillilar qatori urushga jo'naydi. Asirga tushgan Iskandarning uyiga qora xat keladi. U qahramonlikka tavsiya etiladi. Tiriklayin o'ldiga chiqqan Iskandarning ramziy qabri paydo bo'ladi. Qirq yildan ortiq begona yurtlarga yashashga majbur bo'ladi. Boshqa ism – sharif bilan yurtiga keladi, ammo o'zini tanitmaydi. Asar so'ngida uch qahramon uchrashadi. Nihoyatda qiziqarli syujet, kuchli pafos, kolliziya va keskin dramatism ruhi asarning o'qimishlilikini ta'minlagan. “Istambul fojiasi” E.Vohidovga katta shuhrat keltirdi.

Adabiyotshunos S.Mirvaliyev yozishicha, Erkin Vohidov “hayot haqiqatini shekspirona zo'r kuch bilan tasvirlaydiki, natijada o'quvchi qalbida bir entikish, achchiq alam va achinish, urushga nafrat uyg'ona boradi” [4].

“Istambul fojiasi” she’riy dramasi qahramonlaridan biri Jalol sarguzashtlari orqali soxta shuhratparastlik, qo’shib yozishlik, sobiq ittifoq davriga xos illatlar ochib berilgan.

Erkin Vohidov tarix va zamonni bir-biriga ulash orqali ham o’tmish, ham bugunning fojialarini yaqqol ko’rsatib beradi. Shoir nazdida, urush endi odamlarning yuragiga ko’chgan. Dunyoda eng qiyin yumush inson o’z nafsini yengishi ekan, demak, urush davom etaveradi. Ogohlikka chaqiruv ruhida bu asar barcha davrlar uchun dolzarb bo’lib qolaveradi.

Birovkim, bir chamanda soyir erdi,

Nechakim, gul ochilg’on ko’rdi, terdi.

Hamul yerda emas gul istamak xo’b,

Bu bo’ston sahnida gul ko’p, chaman ko’p [1].

Erkin Vohidov milliy she’riyatimizda o’ziga xos maktab yaratgan shoir. Uning ijodi sarhisob qilinsa, ijod mundarijasi serqirra va behad boyligiga guvoh bo’lamiz. Ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralashgan, xalq dardini o’z dardi deb bilgan, milliy qadriyat va an’analarni himoya qilgan adib ham barmoq, ham aruz vaznida barobar ijod qilgan har ikki vaznda ham bir-biriga o’xshamaydigan she’rlar yaratdi.

Zamondan bir qadam oldinda yurgan ijodkor har doim rost so’zlaydi, Haqiqat yo’lida yalovbardor. Xalq tinchligi, osoyishtaligi, oilalardagi xotirjamlik, inson sha’ni va qadr-qimmat, Ona Vatanga bo’lgan cheksiz mehr, sadoqat Erkin Vohidov asarlarining mazmun-mundarijasini tashkil qiladi. Shoir she’riyatining ulug’vorligi va bebaholigi, betakrorligi va zamonaviyligining siri ham ana shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 7-tom. Toshkent, 1964. 23-bet.
2. Hamzatov R. Bir xonadon farzandlari. Toshkent. 1982. 90-bet
3. Bedorlik. Toshkent, G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1985 yil. 194-bet
4. Mirvaliyev S. Mahorat mezoni, “Sharq yulduzi”, 1986 yil, 11-son, 184-bet. Istadim sayr aylamoqni.
5. Omonovna, T. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. International Journal of Formal Education, 3(4), 34-39.
6. Omonovna, T.L. (2024). A peculiar expression of peasant applause in folklore. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy, 2(20), 199-204.
7. To’rayeva, L. (2024). O’zbek xalq o’yinlarida “Bobodehqon” kultiga oid qarashlar talqini. the theory of recent scientific research in the field of pedagogy, 2(20), 234-241.
8. To’rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g’oyalari. In Conference on the role and importance of science in the modern world (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

UDC 81'27:81'34

POLITENESS AND KINSHIP: LINGUOCULTURAL FUNCTIONS OF ADDRESS TERMS IN KOREAN AND KARAKALPAK

D.Tolibayev, EFL teacher, Karakalpak State University, Nukus

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va qoraqalpoq tillaridagi murojaat birliklarining lingvomadaniy funksiyalari o’rganiladi. Genealogik jihatdan uzoq bo’lgan ushbu ikki tilning murojaat tizimlarida kuzatiladigan madaniy o’xshashliklar keskin tafovutga ega. Tabiiy nutq namunalari, etnografik suhbatlar va matnli manbalarning sifat tahliliga tayangan holda, tadqiqot so’zlovchilar qarindoshlik asosidagi atamalar, hurmat bildiruvchi shakllar va munosabatni belgilovchi otlar orqali ierarxiya, muloyimlik va ijtimoiy yaqinlikni qanday ifodalashlarini ko’rib chiqadi. Koreys tizimi yosh va maqomga tayanadigan mayda darajali ierarxiyasi, shuningdek majburiy hurmat affikslari va qarindoshlik o’rnini bosuvchi atamalar bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq tizimi esa, aksincha, birdamlik va jamoaviylikni ustuvor qo’yadi; apa, aqay, balam kabi qarindoshlik metaforalari orqali insonlararo ilqlikni mustahkamlaydi va ijtimoiy integratsiyani ko’rsatadi. Har ikkala tilda qarindoshlik atamalarining kengaytirilgan qo’llanilishi va shaxsiy ism bilan murojaatdan qochish kuzatiladi, biroq bu strategiyalarning pragmatik motivlari keskin farq qiladi va kengroq madaniy qadriyatlar bilan belgilanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, murojaat birliklari ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi madaniy jihatdan shakllangan vosita bo’lib xizmat qiladi hamda lingvomadaniy yondashuvning xalqaro pragmatikadagi ahamiyatini tasdiqlaydi.